

## **XII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI**

*(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*(Adliya boshqarmasi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)*

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1- aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 41 395 taga etdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlar soni 26 895 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 65,0 % ni tashkil qildi.


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahri (32,3 %), Chust (8,2 %), Uchqo'rg'on (6,6 %) va Uychi (6,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### **Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

*(2024- yilning 1- aprel holatiga)*

	Ro'yxatga oligan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>41 395</b>	<b>100,0</b>	<b>26 895</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	13 381	32,3	8 342	31,0
Mingbuloq	1 932	4,7	1 274	4,7
Kosonsoy	2 545	6,2	1 595	5,9
Namangan t.	2 578	6,2	1 665	6,2
Norin	2 118	5,1	1 406	5,2
Pop	2 628	6,3	1 922	7,1
To'raqo'rg'on	2 564	6,2	1 763	6,6
Uychi	2 653	6,4	1 592	5,9
Uchqo'rg'on	2 720	6,6	1 905	7,1
Chortoq	2 652	6,4	1 709	6,4
Chust	3 392	8,2	2 325	8,7
Yangiqo'rg'on	2 232	5,4	1 397	5,2

**Ro'yxatdan o'tgan sub'yektlarning hududlar bo'yicha ulushi, % da**  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (33,3 %)), sanoat (19,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (8,3 %) hamda qurilish (6,4 %) sohalariga to'g'ri keladi.


**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	Birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	36 792	100,0	22 595	100,0
shu jumladan:				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 409	9,3	1 740	7,7
sanoat	8 153	22,1	4 524	20,0
qurilish	2 637	7,2	1 506	6,7
savdo	13 763	37,4	9 068	40,1
tashish va saqlash	1 424	3,9	953	4,2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 020	5,5	1 296	5,7
axborot va aloqa	577	1,6	361	1,6
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	782	2,1	628	2,8
boshqa turlari	4 027	10,9	2 519	11,2


**Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalarini soni**

(tashkiliy-xuquqiy shakli bo‘yicha)


2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



*Mas'uliyati cheklangan jamiyat*



*Xususiy korxona*




**Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

*Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis xujjalari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamoat faoliyati bilan bo‘lib zarar uchun o‘zlar qo‘sghan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.*

*Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘sagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining doirasida solidar javobgar bo‘ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek “mas'uliyati cheklangan” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.*

### Oilaviy korxonalar soni

(2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




Ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2024 yil 1- aprel holatiga ko‘ra 1 521 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 89 taga yoki 6,2 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 011 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 66 taga yoki 93,9 foizni tashkil etdi.

2024 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 68 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 20 taga yoki 141,7 foizni tashkil etganligini ko‘rish mumkin.

### Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning xududlar kesimida soni

(2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni  
(2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)**


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra 28 332 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 188 taga yoki 8,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 17 696 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 138 taga yoki 94,0 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

2024 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 906 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 252 taga yoki 78,2 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan  
jamiyatlarining hududlar kesimidagi soni  
(2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)**




2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 5 948 ta (jamidagi ulushi 33,6 %), Pop 1 286 ta (7,3 %), Chortoq 1 284 (7,3 %), Uchqo'rg'on 1 267 ta (7,1 %), Chust 1 151 ta (6,5 %), Kosonsoy 1 090 ta (6,2%), Uychi 1 088 ta (6,1 %), Namangan 1 035 ta (5,8 %), To'raqo'rg'on 986 ta (5,6 %) xissasiga to'g'ri keladi.

Aksinchaleng kam Mingbuloq 703 ta (4,0 %), Yangiqo'rg'on 901 ta (5,1 %) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
korxonalarini jamiga nisbatan ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlari  
soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**Ro‘yxatga olingan faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)**

	<i>Ro‘yxatga oligan</i>		<i>Faoliyat ko‘rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>41 395</b>	<b>100,0</b>	<b>26 895</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 435	8,3	1 766	6,6
sanoat	8 156	19,7	4 526	16,8
qurilish	2 653	6,4	1 521	5,7
savdo	13 768	33,3	9 070	33,7
tashish va saqlash	1 424	3,4	953	3,5
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 022	4,9	1 298	4,8
axborot va aloqa	611	1,5	393	1,5
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	871	2,1	714	2,7
boshqa turlari	8 455	20,4	6 654	24,7


**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)**




Korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 65,0 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 35,0 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 2,8 foiz oshgan.

**Korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonidan faoliyat  
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**

01.04.2023 yil




01.04.2024 yil



2024- yil 1- aprel holatiga 22 595 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3 632 ta, oilaviy korxonalar – 1 011 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 17 696 tani va 256 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi  
sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha  
taqsimlanishi, birlikda**

■ 01.04.2023 yil ■ 01.04.2024 yil



2024 yil yanvar-mart oylarida jami 1 088 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,1 foizni tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (343 ta), Pop (88 ta), Uchqo'rg'on (87 ta), Chust (83 ta), Chortoq (78 ta), Norin (74 ta), Yangiqo'rg'on (66 ta), Kosonsoy (61 ta), Mingbuluoq (57 ta), Uychi (55 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kami esa, To'raqo'rg'on (53 ta) va Namangan (43 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va  
tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, *birlikda*  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)




**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(2024-yilning 1-aprel holatiga)**




**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, birlikda**

■ 2023 y. ■ 2024 y.




## Namangan viloyatining 2024- yil yanvar-mart oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona  
va tashkilotlarning soni, birlikda  
(2024 yilning yanvar-mart oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning ulushi savdoda 36,6 %, sanoatda 19,9 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 9,3 %, qurilishda 3,4 % ni tashkil etadi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da  
(2024 yilning yanvar-mart oylarida)



**2024 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**

8,8 %



Sanoat

57,4 %



*Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik  
xo'jaligi*

16,2 %



Savdo

5,9 %




*Yashash va  
ovqatlanish bo'yicha  
xizmatlar*

2,9 %



*Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmatlar*

4,4



*Boshqa turlar*

2024-yil 1-aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 22 449 tadan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023 yil mos davriga nisbatan 91,7 % tashkil qilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 7 011 tasi (jami sub'ektlarning 31,2 %) Namangan shahriga, 1 987 tasi (8,9 %) Chust, 1 569 tasi (7,0 %) Pop, 1 627 tasi (7,3 %) Uchqo'rg'on, 1 326 tasi (5,9 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 1 026 tasi (4,6 %) Mingbuloq, 1 153 tasi (5,1 %) Norin, 1 101 tasi (4,9 %) Yangiqo'rg'on, 1 311 tasi (5,8 %) Kosonsoy tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining  
hududlar bo‘yicha soni**

	2023- yil 1- aprel holatiga		2024- yil 1- aprel holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>28 934</b>	<b>100,0</b>	<b>22 449</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	9 119	31,5	7 011	31,2
Mingbuloq	1 369	4,7	1 026	4,6
Kosonsoy	1 735	6,0	1 311	5,8
Namangan t.	1 711	5,9	1 420	6,3
Norin	1 499	5,2	1 153	5,1
Pop	2 135	7,4	1 569	7,0
To‘raqo‘rg‘on	1 845	6,4	1 479	6,6
Uychi	1 872	6,5	1 326	5,9
Uchqo‘rg‘on	1 970	6,8	1 627	7,3
Chortoq	1 741	6,0	1 439	6,4
Chust	2 374	8,2	1 987	8,9
Yangiqo‘rg‘on	1 564	5,4	1 101	4,9

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 22 449 ta kichik tadbirkorlik subyektlarining 9 043 tasi (40,3 %) - savdoda, 4 477 tasi (19,9 %) - sanoatda, 1 731 tasi (7,7 %) - qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligidagi, 1 499 tasi (6,7 %) - qurilishda, 1 292 tasi (5,8 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 950 tasi (4,2 %) – tashish va saqlashda, 623 tasi (2,8 %) - sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 361 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida shuningdek, 2 473 tasi (11,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da  
(2024-yilning 1-aprel holatiga)**



2024 yil yanvar-mart oylarida jami 1 054 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,1 foizni tashkil etgan.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (1 211 ta), Uchqo'rg'on (449 ta), Chortoq (377 ta), To'raqo'rg'on (370 ta), Chust (331 ta), Mingbuloq (322 ta), Pop (312 ta), Uychi (283 ta) va Kosonsoy (261 ta) tumanlariga, eng kam tashkil etilganlari esa, Yangiqo'rg'on (231 ta) va Namangan (242 ta), Norin (247 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

**2024 yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik  
tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni, birlikda**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'p tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (398 ta), sanoatda (216 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (101 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (73 ta) hamda qurilishda (37 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (21 ta), axborot va aloqada (38 ta) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli, faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ro'yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, 2024- yilning 1- aprel holatiga Namangan viloyatida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 38,7 % ni (14 160 ta) tashkil qilgan, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 091 taga ko'paygan.

Hisobot davrida 461 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 306 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 66,4 %) ixtiyoriy tugatilgan.


**Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da  
(2024- yil yanvar-mart)**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.** 2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 218 tani tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12 taga yoki 94,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 113 tasi qo'shma korxonalar, 105 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)**



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar 94 ta (43,1 %), Pop 24 ta (11,0 %), Chust 20 ta (9,2 %), Kosonsoy 15 ta (6,9) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida korxonalar Mingbuloq 4 ta (1,8 %), Uchqo'rg'on, Chortoq 5 tadan (2,3 % dan), Norin 8 ta (3,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi  
(2024-yilning 1-aprel holatiga)**

	<b>birlik</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi % da</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>218</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	94	43,1
<b>Mingbuloq</b>	<b>4</b>	<b>1,8</b>
Kosonsoy	15	6,9
<b>Namangan t.</b>	<b>9</b>	<b>4,1</b>
Norin	8	3,7
<b>Pop</b>	<b>24</b>	<b>11,0</b>
To'raqo'rg'on	9	4,1
<b>Uychi</b>	<b>15</b>	<b>6,9</b>
Uchqo'rg'on	5	2,3
<b>Chortoq</b>	<b>5</b>	<b>2,3</b>
Chust	20	9,2
<b>Yangiqo'rg'on</b>	<b>10</b>	<b>4,6</b>

Faoliyat ko'rsatayotgan 218 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 102 tasi (43,6 %) sanoat, 56 ta (23,9 %) savdo, 18 ta (7,7 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 13 tasi (5,6 %) qurilish, 8 tadan (3,4 % dan) tashish va saqlashda hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7 tasi (3,0 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 19 tasi (8,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## *Namangan viloyatining 2024- yil yanvar-mart oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati*

**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)**

	birlik	Jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>218</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	14	6,4
sanoat	91	41,7
qurilish	13	6,0
savdo	56	25,7
tashish va saqlash	5	2,3
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5	2,3
axborot va aloqa	4	1,8
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	7	3,2
boshqa turlari	23	10,6

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da  
(2024- yilning 1- aprel holatiga)**



2024 yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 10 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6 taga yoki 62,5 foizni tashkil qilgan.

Bunda, Qozog'iston – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston – 2 tadan, 3 ta davlatlardan 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.


Viloyatdagi 10 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Namangan shahar (5 ta), Chust (3 ta), To'raqo'rg'on, Uychi (1 tadan) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Mingbuloq, Kosonsov, Namangan, Norin, Pop, Uchqo'rg'on, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
hududlar kesimidagi soni va ulushi  
(2024- yil yanvar-mart)**


	<b>birlik</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>10</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	5	50,0
Mingbuloq	-	-
Kosonsov	-	-
Namangan t.	-	-
Norin	-	-
Pop	-	-
To'raqo'rg'on	1	10,0
Uychi	1	10,0
Uchqo'rg'on	-	-
Chortoq	-	-
Chust	3	30,0
Yangiqo'rg'on	-	-

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 5 ta, sanoatda 3 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, axborot va aloqa 2 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha soni, birlikda  
(2024 yil yanvar-mart)**



**2024 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



**Oilaviy korxonalar.** Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni, 2024- yil 1- aprel holatiga 1 521 tani tashkil etib, ulardan 1 011 tasi yoki 66,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tganlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha 6,0 % ga oshganligini ta'kidlash mumkin.